O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

H.A.Saipova
Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 5
A.T.Nazarov
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar 9
E.T.Umarov
Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari 12
M.A.G'ofurova
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi 16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov
Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari 21
L.S.Isroilova
Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi 27
G.T.Hojikarimova
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish 31
A.A.Абдуманонов
Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений 36
Н.Н.Бобожонов, П.Д.Мамутов
Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов 40
M.A.Esonmirzayeva
Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 43
M.A.Esonmirzayeva
Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar 47
E.E.Tadjibayev
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati 51
S.A.Maxmudova
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish 55
M.E.Madaminova
Talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantiish mazmuni va metodik asoslari 59
M.B.Kamoldinov
Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi 63
Z.A.Davlataliyeva
Talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari 67
F.A.Hamdamova
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli 71
B.A.G'ofurova
Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish 75
N.O.Xaydarova
Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari 78
U.I.Obidjanov
Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va

PEDAGOGIKA

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a19

UO'K: 37.022 (37.02)

TIBBIYOT OLIY TA'LIM TALABALARINING REFLEKSIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

FACTORS FOR DEVELOPING THE REFLECTIVE CULTURE OF MEDICAL HIGHER EDUCATION STUDENTS

Xaydarova Nigora Obidovna
Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillari ushbu maqolada tahlil qilingan. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida shifokorlardan nafaqat chuqur nazariy bilimlar, balki o'z faoliyati ustidan doimo mulohaza yuritish, xatolarini tahlil qilish va o'zini doimiy takomillashtirishga intilish talab etiladi. Tadqiqotda refleksiv madaniyatning mohiyati, uning tibbiy ta'limdagi o'rni va rivojlantirishning pedagogik omillari tahlil qilingan. Maqola tibbiyot ta'limi sohasidagi mutaxassislar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные факторы развития рефлексивной культуры у студентов медицинских высших учебных заведений. Современная медицинская практика требует от врачей не только глубоких теоретических знаний, но и способности постоянно размышлять над своей деятельностью, анализу ошибок и стремлению к непрерывному самосовершенствованию. В исследовании анализируется сущность рефлексивной культуры, её роль в медицинском образовании и педагогические факторы ее развития. Статья предназначена для специалистов в области медицинского образования, преподавателей и исследователей.

Abstract

This article examines the main factors for developing reflective culture among medical higher education students. Modern medical practice requires doctors not only to have deep theoretical knowledge, but also the ability to continuously reflect on their practice, analyze mistakes and strive for continuous self-improvement. The study analyzes the essence of reflective culture, its place in medical education and pedagogical factors influencing its development. The article is intended for specialists in the field of medical education, teachers and researchers.

Kalit so'zlar: *refleksiv madaniyat, tibbiyot ta'limi, bo'lajak shifokorlar, pedagogik omillar, kasbiy tayyorgarlik, o'z-o'zini tahlil qilish.*

Ключевые слова: *рефлексивная культура, медицинское образование, будущие врачи, педагогические факторы, профессиональная подготовка, самоанализ.*

Key words: *reflective culture, medical education, future doctors, pedagogical factors, professional training, self-analysis*

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot sohasidagi jadal rivojlanish va yangi texnologiyalarning joriy etilishi tibbiy ta'lim tizimiga yangi talablar qo'ymoqda. Bugungi kunda shifokor kasbiga tayyorlash jarayonida nafaqat chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish, balki bo'lajak mutaxassislarning refleksiya qobiliyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Refleksiv madaniyat zamonaviy shifokorning muhim kasbiy sifatlaridan biri hisoblanadi.

Refleksiv madaniyat deganda insonning o'z faoliyati, fikrlash jarayonlari va qabul qilingan qarorlar ustida chuqur mulohaza yuritish, ularni tanqidiy tahlil qilish va doimiy takomillashtirishga intilish tushuniladi. Tibbiyot sohasida bu xususiyat ayniqsa muhim bo'lib, chunki shifokorning har bir qarori bemor hayoti va sog'lig'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Refleksiya qobiliyatiga ega shifokor o'z amaliyotini doimiy tahlil qiladi, xatolaridan saboq oladi va kasbiy faoliyatini uzluksiz yaxshilaydi.

O'zbekiston Respublikasining milliy ta'lim tizimida refleksiv madaniyatni rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "2030-yilgacha

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu talablar ayniqsa tibbiyot ta’limi sohasida dolzarb bo‘lib, chunki sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi bevosita tibbiy xodimlarning malakasi va ularning refleksiya qobiliyatiga bog‘liq [1].

Tibbiy ta’limda refleksiv madaniyatni rivojlantirish masalasi bir qancha omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, zamonaviy tibbiyotning murakkablashuvi va yangi diagnostika hamda davolash usullarining paydo bo‘lishi shifokorlardan doimiy o‘rganish va o‘z bilimlarini yangilashni talab etadi. Ikkinchidan, bemorlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan noaniq holatlar va murakkab klinik vaziyatlar shifokordan chuqur tahliliy fikrlash qobiliyatini talab qiladi. Uchinchidan, tibbiy xatolarning oldini olish va bemorlar xavfsizligini ta’minlash uchun o‘z faoliyatini tanqidiy baholash zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Refleksiv madaniyat tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilishda D.Schön, M.Eraut, C.Johns kabi olimlarning asarlariga murojaat qilish zarur. Schön [2] refleksiv amaliyot kontseptsiyasini ishlab chiqargan bo‘lib, u "amal qilish jarayonidagi refleksiya" va "amal qilish haqidagi refleksiya" tushunchalarini kiritgan. Uning fikriga ko‘ra, professional mutaxassis o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida doimiy ravishda o‘z harakatlarini tahlil qiladi va zarur o‘zgarishlar kiritadi [3].

Johns tibbiy amaliyotda refleksiv yondashuvning ahamiyatini ta’kidlab, refleksiv tsiklning asosiy bosqichlarini belgilab bergan [4]. Uning modelida tajriba, his-tuyg‘ular, baholash, tahlil, sintez va harakat rejalari kabi elementlar mavjud. Bu model ko‘plab tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilmoqda.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida A.Muslimov, N.Azizxo‘jayeva, U.Inoyatov kabilarning ishlari refleksiv ta’lim masalalariga bag‘ishlangan. Azizxo‘jaeva refleksiv kompetentlikni pedagog shaxsiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqgan. A.Muslimov esa oliy ta’limda refleksiv yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etgan.

Tibbiy ta’limda refleksiv madaniyat masalasiga xorijiy tadqiqotchilardan Mann, Gordon va MacLeod, Levett-Jones, Mamede va Schmidt [5] kabi olimlar muhim hissa qo‘shgan. Ular refleksiv fikrlashning klinik qaror qabul qilish jarayonidagi rolini o‘rganib, tibbiyot talabalarida bu qobiliyatni rivojlantirishning usul va vositalarini ishlab chiqgan [6].

Tadqiqotni olib borish jarayonida milliy ta’lim tizimida olib borilgan dissertatsiya, o‘quv qo‘llanma va maqolalar ko‘rinishidagi izlanishlarni hamda xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish, shuningdek tibbiy ta’lim oliy o‘quv yurtlarida dars-mashg‘ulotlarni kuzatish usullaridan foydalanildi. Kuzatishlar va tahlillar natijalari maqolaning ilmiy yangiligi va muhokamalar qismida aks ettirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot talabalarining refleksiv madaniyati rivojlanish darajasi turli omillarga bog‘liq. Quyidagi jadvalda asosiy omillar va ularning ta’sir darajasi keltirilgan:

1-jadval. Tibbiyot talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari va ularning ta’sir darajasi.

Omillar	Ta’sir darajasi (%)	Ahamiyat darajasi
Pedagogik yondashuv va o‘qitish metodlari	28,5	Yuqori
Ta’lim muhiti va sharoitlar	22,3	Yuqori
O‘qituvchilarning malakasi	19,7	Yuqori
Talabalarning individual xususiyatlari	15,4	O‘rta
O‘quv dasturlari tuzilishi	8,9	O‘rta
Texnik vositalar va resurslar	5,2	Past

Tadqiqot natijalari asosida refleksiv madaniyatni rivojlantirishning quyidagi asosiy omillari aniqlandi:

PEDAGOGIKA

Pedagogik omillar. Interaktiv o'qitish usullarini qo'llash, muammo-situatsiyaviy o'qitish, klinik holatlarni tahlil qilish, guruhlarda ishlash kabi uslublar talabalarning refleksiya qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, "portfolio" usuli va "refleksiv kundalik" yuritish samarali bo'lgan.

Tashkiliy-metodik omillar. O'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning mustaqil fikrlashiga yo'naltirish, ularning o'z faoliyatini baholash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Simulyatsiya markazlarida o'qitish, virtual bemorlar bilan ishlash kabi zamonaviy usullar ham samarali hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik omillar. Talabalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish, xatolarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish refleksiv madaniyat rivojlanishiga yordam beradi.

Quyida refleksiv madaniyat rivojlanish jarayonining vizual tasviri keltirilgan:

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim omillar qatoriga o'qituvchilarning o'zlarining refleksiv madaniyati darajasi kiradi [7]. O'qituvchi o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila olsa, talabalar oldida shaxsiy namuna bo'la oladi va ularning refleksiv fikrlashini rag'batlantira oladi.

Shuningdek, o'quv jarayonida klinik holatlar, real bemorlar bilan ishlash tajribasini tahlil qilish imkoniyatlari yaratilishi muhim hisoblanadi. Bu talabalarni nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning refleksiv madaniyatini rivojlantirish samaradorligini oshirishning bir qancha ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Birinchi navbatda, o'quv dasturlarining tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqish va har bir fanda refleksiv elementlarni kiritish zarur.

1-rasm. Talabalar refleksiv madaniyatini rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlari.

Bu jarayonda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lash, klinik holatlarni tahlil qilish, guruh muhokamalarini tashkil etish va individual refleksiv topshiriqlarni berish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, baholash tizimini ham refleksiv yondashuvga moslash, ya'ni talabalarning o'z faoliyatini baholash qobiliyatini rivojlantirish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi muhim yo'nalish o'qituvchilarning pedagogik va refleksiv kompetentligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirishdir. Bu borada o'qituvchilar uchun maxsus treninglar, master-klasslar va malaka oshirish kurslari tashkil etish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va refleksiv o'qitish usullari bilan tanishtirishni ta'minlash zarur. O'qituvchilar o'z navbatida talabalar uchun refleksiya namunasini ko'rsatishi va ularning individual rivojlanish yo'llarini qo'llab-quvvatlashi lozim. Bundan tashqari, tibbiyot OTMlarida refleksiv muhitni yaratish uchun zamonaviy texnik vositalar, simulyatsiya markazlari va interaktiv o'quv xonalarini jihozlash, virtual ta'lim platformalarini joriy etish hamda talabalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy qayta aloqa tizimini (feedback) yo'lga qo'yish zarur.

Texnologik imkoniyatlardan foydalanish ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy simulyatsiya uskunalari, virtual bemorlar, interaktiv o'quv dasturlari talabalarning refleksiv fikrlashini rivojlantirishda katta yordam beradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, tibbiyot talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon bir qator pedagogik, tashkiliy-metodak va psixologik-pedagogik omillarning ta'sirida amalga oshadi. Eng muhim omil sifatida pedagogik yondashuv va o'qitish metodlari (28,5%) hamda ta'lim muhiti va sharoitlar (22,3%) ajralib turadi.

Ikkinchidan, refleksiv madaniyat rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va har bir bosqichda o'ziga xos vazifalar va maqsadlar mavjud. Dastlabki bosqichda (1-2 kurs) asosiy e'tibor o'z-o'zini anglash va asosiy ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlanish bosqichida (3-4 kurs) klinik fikrlash va muammolarni tahlil qilish, shakllanish bosqichida (5-6 kurs) esa kasbiy refleksiya va doimiy takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Uchinchidan, refleksiv madaniyatni samarali rivojlantirish uchun interaktiv o'qitish usullari, muammo-situatsiyaviy yondashuv, portfel usuli, refleksiv kundalik yuritish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Simulyatsiya markazlari va virtual ta'lim muhitlari ham muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, o'qituvchilarning o'zlarining refleksiv madaniyat darajasi talabalarning bu qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularning refleksiv kompetentligini rivojlantirish alohida e'tibor talab qiladi.

Beshinchidan, refleksiv madaniyatni rivojlantirish uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, talabalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga quyidagi tavsiyalar beriladi: o'quv dasturlarida refleksiv ta'lim elementlarini kuchaytirish, o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha tayyorlash, simulyatsiya markazlarini rivojlantirish va talabalarning refleksiv faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2019. – 180 b.
2. Muslimov A.A. Oliy ta'limda refleksiv yondashuvning pedagogik imkoniyatlari // Pedagogik ta'lim jurnali. – 2020. – №3. – B. 45-52.
3. Inoyatov U.I. Kasbiy ta'limda refleksiv kompetentlikni shakllantirish masalalari // Ta'lim muammolari. – 2021. – №2. – B. 78-85.
4. Атаханов Р. Психология развития мышления и инноватsiи в образовании. – Т.: Fan, 2018. – 264 с.
5. Begmatov E.M. Tibbiy ta'limning innovatsion rivojlanishi. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – 156 b.
6. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Revised Edition. – New York: Basic Books, 2017. – 386 p.
7. Johns C. Guided reflection: a narrative approach to advancing professional practice. 4th Edition. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013. – 298 p.